

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

4 “A” guruh talabasi Hamdamova Zulfizarning

G`AFUR G`ULOMNING “SHUM BOLA ” QISSASIDA QO`LLANGAN
SOMATIK FRAZEOLOGIZMLAR

mavzusida yozgan



G`AFUR G`ULOMNING “SHUM BOLA ” QISSASIDA QO`LLANGAN SOMATIK FRAZELOGIZMLAR

Reja:

1. O`zbek tilshunosligida so`zlar va iboralarni o`rganishga doir muammolar haqida
2. G`afur G`ulomning “Shum bola ” qissasida qo`llangan somatik frazeologizmlar va ularning tilning lug`aviy tizimida tutgan o`rni
3. G`afur G`ulomning “Shum bola” qissasida qo`llangan “ko`z”, “qo`l”, “til” komponentli frazeologizmlar

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng adabiyotshunoslik va tilshunoslikda yaratayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari mavzu ko'lamini, tadqiqot ob'ekti nuqtai nazaridan ham rang-barang bo'lib bordi. Yurtboshimiz I.A. Karimov rahbarligidagi siyosatning bosh omili ham ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirishga qaratilganligi bilan alohida e'tiborga loyiqdir: "Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak"¹

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning badiiy va publistik nutq uslublarida qo'llanish xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, B. Yo'ldoshevning "Frazeologik uslubiyat asoslari" (1999), B.Yo'ldoshev, Z. Shodievlarning "Ufq" trilogiyasining lingvopoetik tahlili masalalari (2006) kabi ishlar bu jihatdan e'tiborga molik. Lekin shu kunga qadar G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llangan somatic frazeologizmlar yaxlit monografik yo'nalishda tahlil etilganicha yo'q. Shunga binoan biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda G'.G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llangan somatic frazeologizmlarni o'z imkoniyatimiz darajasida o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

G'afur G'ulom ijodi haqida so'z yuritganda adibning nasriy asarlari to'g'risida gapirmasdan bo'lmaydi. G'afur G'ulom nasri haqiqiy milliy nasrdir. Fikrimizcha, har qanday xalqchil asar milliy bo'la olmaydi, har qanday milliy asar esa doimo xalqchildir. G'afur G'ulomning "Shum bola", "Netay", "Yodgor", "Mening o'g'rigina bolam" kabi qissa-yu hangomalarni hech ikkilanmasdan adabiyotimizning durdonalari deb atasa bo'ladi.

G'afur G'ulomning tili o'tkir ijodi bilan ko'pgina ilm darg'alari qiziqadilar. Uning sermahsul ijodni turli qirralarini kashf etishga uringan olimlarimiz talaygina. Kimdir adib ijodini badiiy mahoratiga baho bersa, kimdir til xususiyatlari bilan qiziqadi. Biz ushbu bitiruv malakaviy ishimizda G'afur G'ulom "Shum bola" qissasida qo'llangan somatic frazeologizmlar bilan qiziqdik. Mazkur

¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat yingilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat", 2008yil, 139-140-betlar

ishda adib ijodining ochilmagan qirralari haqida soʻz boradi. Frazologiya masalarini tadqiq etish, shubhasiz, uning mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanishiga sabab boʻldi, tilshunoslik fanini nazariy va amaliy jihatdan boyitdi. Lekin bundan frazeologiya sohasida doir oʻrganilmagan muammolar qolmadi, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak.

Biz ushbu referatimizda taniqli adibimiz Gʻafur Gʻulomning “Shum boila” qissasidagi qoʻllangan somatik frazeologizmlar tadqiqiga bagʻishladik.

Sevimli adibimiz Gʻafur Gʻulomning “Shum bola” qissasida qoʻllangan “koʻz”, “qoʻl” “til” komponentli frazemalarning qoʻllanishini koʻrib oʻtamiz:

Kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, “koʻz” komponentli iboralarning 15 tasi polisemantik xususiyatga ega. Shundan bittasi toʻrt maʼnoli (koʻz qismoq), ikkitasi uch maʼnoli (“koʻzi qiymaydi”, “koʻz tikmoq”) qolgan oʻn ikkitasi (“koʻzga ilinmoq”, “koʻzga koʻrinmoq”, “koʻzga tashlanmoq”, “koʻzga issiq koʻrinmoq”, “koʻzga koʻrinmaslik”, koʻzidan oʻt chiqib ketdi, “koʻzi tindi”, “koʻzi toʻymaydi”, “koʻzi qamashdi”, “koʻzlari qinidan chiqib ketayozdi”, “koʻzini olaytirmoq”, “koʻz oʻngida”) ikki maʼnoli polisemantik iboralardir.

Maʼlumki, til birliklarining bittadan ortiq maʼnoni ifodalashi natijasida polisemiya hodisasi vujudga keladi. Polisemiya tilning barcha sathlariga, jumladan lugʻaviy sathga ham xosdir. Tilshunoslikda lugʻaviy polisemiya esa oʻz navbatida leksik polisemiya va frazeologik polisemiya deb ikki guruhga ajratib oʻrganilmoqda. Sh. Rahmatullayevning fikricha, hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi iboralarda lugʻaviy maʼnoning taraqqiyoti asosan metafora yoʻli bilan koʻchirish natijasida voqe boʻlgan”.²

Koʻp maʼnoli iboralar lugʻatlarda hozirgi kunga qadar turlicha izohlanmoqda. Masalan, odam tana aʼzolaridan, ayniqsa, koʻz ishtirokidagi iboralar lugʻatlarda salmoqli oʻrinni egallaydi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati “ (OʻTIL) da ”koʻz” ishtirokidagi iboralar lugʻatlarda salmoqli oʻrinni egallaydi. “Oʻzbek tilining izohli lugʻati “ (OʻTIL) da “koʻz” qatnashgan 80 dan ortiq ibora qayd etilgan [OʻTIL,1,

² Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.-Toshkent: Oʻqituvchi, 1992., B.101.

410-411]. Sh. Rahmatullayevning “O`zbek tilining izohli frazeologik lug`ati” (O`TIFL) da 158 ta shunday ibora mavjudligi qayd etilgan [O`TIFL, 132-151]. Agar biz bu lug`atlarda kektirilgan “ko`z” so`zi ishtirokidagi iboralarning barcha variantdoshlarini ham inobatga oladigan bo`lsak, ularning umumiy soni 190 dan ortadi. A. Isayev “O`zbek tilida somatik frazeologizmlar” nomli tadqiqotida “Ko`z” komponentli iboralar tilimizda 127 taligi qayd qilinadi.. Uning ta`kidlashicha, “ko`z” komponentli iboralar mahsuldorligi jihatdan rus tilida ikkinchi o`rinni, turkman tilida beshinchi o`rinni, latish tilida ikkinchi, ingliz va nemis tillarida uchinchi o`rinni egallaydi [3].

Dastlab, G`. G`ulomning “Shum bola” qissasida “ko`z” komponentli iboralarning qo`llanishini ko`rib o`tamiz:

Bu qushlarning har bittasini u **ko`zining qorachig`idek** ko`rar edi-ku (120). Bu o`rinda ko`z qorachig`idek iborasi “juda avaylab-asrash” ma`nolarida kelgan.

Ko`zim** hazratga **tushdi**. (122) Keyin **bizga ko`zi tushib qolib:

-Hoy haromilar, bu yerda nima qilib yuribsanlar? Qani bu yoqqa kel dedi. (114)

Bu o`rinlarda “**ko`zi tushmoq**”, **ko`zi tushib qolmoq**” frazemasini “to`satdan ko`rib qolmoq” ma`nosini ifodalab kelgan.

Ular o`likka bizdan ko`ra jonkuyarroq bo`lganliklari uchun **ko`zlari qinidan chiqib**, hovliqib ketgan edilar (122). Bu o`rinda **ko`zlari qinidan chiqib ketmoq** ikki ma`noli polisemantik ibora qo`llangan bo`lib, “hayajondan ko`zlarini katta-katta ochib” ma`nosida kelgan.

Omon qochib qayga bordi bilmadim, men bir zumdayoq **ko`zdan g`oyib bo`lib borar edim** (122). “Ko`zdan g`oyib bo`lmoq” iborasi “asta-sekin ko`zga ko`rinmaslik” ma`nosida qo`llangan.

Bu machitda bundan ilgari bir necha marta joynamoz, namat o`g`irlagani uchun, so`fi ham domla-imom ham mendan shubhalanib, bir necha marta yer ostidan **ko`z-qirini tashlab**, xumrayib qarashdi-da, s`ofi so`radi:-Ha, o`g`lim, juda o`tirib qoldingiz? Namoz tamom bo`ldi (127). Bu o`rinda qo`llangan “ko`z qirini

tashlamoq” iborasi ko`zining bir chekkasi (yon tomoni) bilanqaramoq ma`nosini ifodalab kelgan.

Ayniqsa, pirimning har to`rtala xotinlarini onamdan ham ziyoda ko`raman, **ko`z olaytirmayman** (130). Bu parchada ko`z olaytirmaslik iborasi “umud qilmaslik” ma`nosida qo`llangan.

Asarlarda iborani oddiy qo`llanishdagi so`z bilan kengaytirish (murakkablashtirish) o`sha ibora tarkibiga biror semantik yoki grammatik o`zgarish kiritadi, shu asosda umumtilga xos iboraning ekspressiv bo`yoqdorligi ortadi. Taniqli yozuvchimiz G`afur G`ulomning “Shum bola” qissasida ham ibora kengayishining bir necha ko`rinishi mavjudligini ko`rishimiz mumkin. Ibora tarkibiga uning biror komponentiga tegishli, o`sha komponentini aniqlab, izohlab keluvchi so`z yoki o`xshatish birikma kiritish. Odatda, bunday kengaytirish fe`l frazeologizmlarda ko`proq yuz beradi, bunday iboralarning komponentlaridan biri izohlanadi va kengaytiriladi. Masalan, adabiy tilda **“ko`zlari qinidan chiqib ketmoq”** iborasi “o`ta g`azablanmoq” ma`nosini bildiradi. Adib asarida “ko`zlari qinidan chiqib ketmoq” iborasi tarkibini “g`ayn olxuridek” birikmasi yordamida xuddi shu usulda kengaytiradi, shu asosda ibora ifodalayotgan ma`noning konkretlashuviga erishadi.

Tepamda latta ko`ylakli, bir qo`li bilan istibro kesagini ushlagan, har bir **ko`zi g`ayin olxo`ridek qinidan chiqib ketgan** domlapochcham turar edi (129).

Umuman olganda, frazeologizmlar tilda tayyor holda mavjud bo`lganligi, turg`unligi sababli, bir qarashda ularning struktural tartibi o`zgarmasdek tuyuladi. Ammo nutqda, ayniqsa, badiiy va publisistik nutqda, she`riy matnlarda frazeologizmlar ma`lum tashqi, ya`ni struktural va ichki, ya`ni semantik o`zgarishlarga uchraydi.

Ko`zim og`ilxonaning tomiga qo`yilgan narvonga **tushib qoldi** (130). Bu orinda ham “ko`zi tushmoq” iborasi “to`satdan ko`rib qolmoq” ma`nosida kelgan.

-O`zlariyam o`lguncha **ko`zi tor** , ziqna, murdor odam, pul bo`lsa bo`lgani,- dedi xotin.

“**Ko`zi tor**” frazeması “o`zgaga hech narsani ravo ko`rmaydigan; ziqna, baxil” ma`nosida qo`llangan bo`lib ma`noni yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu o`rinda “ko`zi uchramoq” frazeması “ko`rib qolmoq” ma`nosida qo`llangan.

Undan **ko`zimni uzmay** tikilib turaman (153).

“Ko`zini uzmay” iborasi “tikilgan holda, ko`zini olmay qaramoq” ma`nosida kelgan.

Birmuncha katta-kichik to`lg`oqlardan keyin qo`y bechoraning **ko`zi yoridi**. (157). Bu o`rinda “ko`zi yorimoq” frazeması “bo`shanmoq, tug`moq” ma`nosini ifodalab kelmoqda.

-Damingni chiqarma, boyning **ko`zini shamg`alat qilib qochamiz** (157). Bu o`rinda “ko`zini shamg`alat qilib qochmoq” frazeması “chalg`itib, ko`rinmaydigan holatga solib qochmoq” ma`nosida qo`llangan.

Onam sho`rlikning beva-kambag`al ro`zg`origa jodiday jag` bilan borishim o`zimga ham o`ng`aysiz, ularning ham menga **ko`zlari uchib turmagan** bo`lsa kerak (171). Bu o`rinda “**ko`zlari uchib turmagan**” iborasi “kutmagan” ma`nosida qo`llangan.

Hash-pash deguncha o`laksa qilib, machitning sahniga olib chiqdilar, bu yerda ham **ko`ziga qon to`lgan** olomon sho`rlikni ura ketadi (171). “ko`ziga qon to`lgan” frazeması bu o`rinda “g`azabga to`lgan, darg`azab” ma`nosini ifodalab kelgan.

Nimani bersalar, **ko`zga urgandek** ko`tarib kelaverma. (201).

Bu o`rinda “ko`zga urgandek” iborasi ham ma`noni kuchaytirib, “u yoq-bu yog`iga qaramasdan, surishtirmasdan, savdolahmasdan” ma`nolarini ifodalab kelgan. “Shum bola” asarida “qo`l” komponentli frazemalar ham talaygina. Ularni asarda qo`llanishini ko`rib o`tamiz:

Asra kal bizni quvlar edi, **qo`liga tushsak** urardi (121). Ushbu parchadagi qo`lga tushmoq iborasi “tutilmoq” ma`nosida kelgan.

U badan mulkining hokimligini ba`zan **qo`limdan olib qo`yadi** (136) “ixtiyorini qo`lidan olmoq” iborasi “hokimligini ba`zan qo`limdan olib qo`ymoq” tarzida qo`llangan. Frazelogizm gap tarkibida boshqa so`zlar bilan

munosabatga kirishar ekan, ba`zan aniqlik kiritishni, konkret sharoitga muvofiqlikni talab qiladi. Ana shunday hollarda ibora komponentlaridan biri almashtiriladi. Agar bunday almashtirish uslubiy jihatdan asoslangan bo`lsa, uning ta`sirchanligi, samaradorligi yanada yuqori bo`ladi.

Domla ham ishtonini, salla to`nlarini namoz jumadagiday savlat qilib kiyib, **qo`l qovushtirib**, basharasiga payg`ambar nusxa berib, lablarida bir nimalarni shivirlab o`qib, o`lik tepasida turar edi (114).

Bu o`rinda qo`l qovushtirmoq frazemasi “biror ishni bajarishga tayyor holda turmoq” ma`nosida qo`llangan. Mullanamo kishi tiz cho`kib, **ikki qo`lini qovushtirib** Sultonning gaplariga miyig`ida odob bilan tabassum qilib o`tirar edi (115). Bu o`rinda ham **“qo`l qovushtirmoq”** frazemasi “biror ishni bajarishga tayyor holda turmoq” ma`nosini o`zida aks ettirib kelgan. Bu frazemani yana bir o`rinda kelganligini ko`rib o`tamiz. Kamina, qalanrvachcha, kavshandozda **qo`l qovushtirib**, tavoze bilan xizmatlariga intizor bo`lib turdim (139).

Bir oz shoshib qolgan, ammo sipogarchilikni **qo`ldan bermagan** hazrat: -tirikligida ko`p gunoh qilib qo`ygan bo`lsa kerak, xudo yuzini ters qilib qo`ydi,-deb javob berdi (114).

Ushbu parchada qo`ldan bermaslik iborasi “o`zini xotirjam ko`rsatmoq” ma`nosida qo`llangan.

Beixtiyor borib yetti qalandar boshlig`ining **qo`lini oldim**, o`pib yig`lay boshladim (140).

Ushbu parchadagi qo`lini olmoq frazemasi “qo`lini ushlamoq” ma`nosida kelgan.

Attang, bebiliska pul topadigan ish **qo`ldan ketadigan** bo`ldi-da. “Qo`ldan ketmoq” frazemasi bu o`rinda “ajralmoq” ma`nosida kelgan.

Hast eshonning kichik xotinlari o`n yettiga yetar-yetmas, juda ham **qo`ling urgilsin** (141).

Bu o`rinda **“qo`ling urgilsin”** iborasi “juda yaxshi, ajoyib” ma`nosini ifodalab kelgan.

Attang-attang, **qo`lga kiray** deb qolgan naqdgina jannatdan ajraldim (145). “Qo`lga kirmoq” iborasi ma`noni yanada kuchaytirib **“ega bo`lmoq”** ma`nosini ifodalashga xizmat qilgan.

Boyagi, men domlanikida, eshonnikida yuraveib xiyla **qo`lli egrilikka** o`rganib qolganman. (167). **“Qo`li egri”** frzemasi “o`g`rilik” ma`nosida qo`llangan. Mazkur ibora yana bir o`rinda qo`llanganligini ko`ramiz. Birorta o`g`ri yoki **qo`li egrining** haddi bormikin, bir musulmonning mulkiga, nomusida taaddi qilsa (202).

G`. G`ulomning “Shum bola” qissasida “og`iz” komponentli iboralarning qo`llanishini ko`rib o`tamiz:

Men bo`lsam, domlaning nima niyatda ekanligini tushunmasdan, hurkovich kiyikdek, oyog`imni bir joyga g`uj qilib, qochishga hozirlangan, **og`zimni** bo`lsa, dodlashga **jo`ftlagan** edim (128).

Bu o`rinda og`iz jo`ftlamoq frazemasi “gapirishga shay turmoq” ma`nosida qo`llangan.

Ichkari- tashqariga qatnab yurganda, **og`zimdan** talqin **tushmaydi** (144).

Ushbu parchada og`zidan tushmaslik iborasi “tez-tez bir gapni takrorlash” ma`nosini idodalab kelgan

Bitiruv malakaviy ishimizning ushbu bobi “yurak”, “bosh” va “til” komponentli frazemalarning qo`llanishiga bag`ishlanadi.

Hujraning ichida o`likning arvohi aylanib yurganday cho`chib-cho`chib, **yurak yutib**, oyoq uchi bilan yurib o`likka yaqinlashdik (185).

Bu o`rinda qo`llangan yurak yutib frazemasi “qo`rqmay, jasorat bilan” ma`nosida qo`llangan.

Yurak oldirib qo`ygan ekanman (186).

Ushbu parchada qo`llangan yurak oldirib qo`ymoq frazemasi “qo`rqmoq, cho`chimoq” ma`nosini ifodalab kelgan.

Xizmatkorlar och, lekin boyning oldiga borishga hech kimning **yuragi dov bermaydi** (212)

Bu o`rinda yuragi dov bermaslik frazemasi “qo`rqish, jur`atsizlik” ma`nolarida qo`llangan. Buni quyidagi miusolda ham ko`rishimiz mumkin.

Buni ko`rgan boshqa qo`ylar hambirin-ketin o`zlarinisuvga tashlay boshladilar, men **yuragi dov bermagan** qo`rqoq qo`ylarni orqasidan itarib, suvga tushurar edim (221).

Yaqin o`rtadagi bog` guzarlariga chiqib non-pon olib kelishga har ikkalamizda ham **yurak yo`q** edi (223).

Yuqoridagi misolda ham yuragi yo`q frazemasi “qo`rqish” ma`nosini o`zida aks ettiradi.

So`z qo`llashningn mohir ustasiga aylangan sevimli adibimiz G`afur G`ulomning mashhur “Shum bola” qissasida “bosh” komponentli frazemalar ham turli ma`no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilib kelgan. Masalan, bechoraning **boshiga** qanday kunlar **keldi** ekan (191).

O`z **boshimdan kechirganlarimni** bir chetdan hikoya qilib berdim (216).

O`zi ham **boshidan o`tganlarni** so`zlay ketdi (216).

Echki bo`lmaganidan keyin **boshi oqqan yoqqa** sanqib keta berar ekan (218).

“Mendan nima ketdi, bir shart qo`yib qo`yay, bir kun **boshimga biror ish tushib qolsa**, shu bahona qutilib ketarman”, degan hayol bilan: “Boy buva,-dedim,-endi-ku savdomiz pishdi.”

“Asra, Asra! Mehmonga qara, bir choy, bir chilim. Keling mulla akalar, keling boyvachchalar”, degani hali ham **qulog`imdan ketmaydi** (158).

Men jimgina **quloq solib**, o`choqning yoniga cho`qqayib, o`t qalashtirmoqqa boshladim (164).

Yuqoridagi misollardan ko`rinadiki, iste`dodli adibimiz G`afur G`ulomning “Shum bola” qissasida somatik frazeologizmlar qo`llanishi juda faol. Adib har bitta iborani ustalik bilan o`z o`rnida qo`llagan. Asarni badiiy barkamolligini, g`oyaviy yetukligini yana bir pog`onaga ko`tarishda somatik frazeologizmlarning ham o`rni beqiyosdir.

Har qanday chinakam ijodkor uchun soʻz va frazeologizmlar bu fikr aytish, kechinmalarni ifodalash vositasigina emas, balki yashash tarsi, yashash shaklidir. Har bir soʻz yoki ibora badiiy asardagi gʻoyaviy-estetik maqsadga koʻra muayyan maʼno kasb etadi, zamiridagi mazmun orqali oʻzining yangi-yangi qirralarini namoyon qiladi. Zukko yozuvchimiz Gʻafur Gʻulomning “Shum bola ” qissasida ham ana shunday frazemalarni juda koʻp oʻrinlarda uchratishimiz mumkin. Adib oʻz asarlarida soʻz va iboralardan oʻrinli va unumli foydalangan. Shu sababli ham uning ijodini kitobxon shunchaki oʻqimaydi. Ular turmushdagi ayrim illatlarni kuydiradi, yuraklarga oʻt qalaydi, qalbimizga harorat, shuurimizga yorugʻlik olib kiradi.

Bizningcha, frazema hosil qiluvchi leksik somatizmlar roʻyxati yanada toʻldirishni talab qiladi. Masalan, A.Isaev tadqiqotida mavjud roʻyhatdan “ilik” somatizmini negadir tushib qolgan.

Bu somatizm”suyak ichidagi yogʻsimon modda”maʼnosini bildiradi [OʻTIL, 1, 321,] koʻngi toʻq, iligi qurimoq, iligi puchaymoq, iligini oʻynatmoq kabi frazemalar xuddi ana shu leksik somatizm yordamida xosil boʻlgan

Shuningdek A.Isaevning ishida qora koʻzlar, jodu koʻzlar singari birikmalar ham frazemalar tarkibiga kiritilganki, buni maʼqullub boʻlmaydi.

A.Isayev ishining ikkinchi bobida “bosh” va “koʻz” soʻzlari bilan bogʻliq frazemalar semantic guruhlariga ajratiladi. Masalan, “bosh” soʻzli frazemalar maʼnoviy xususiyatlariga koʻra quyidagicha guruhlangan: insonning ruhiy holatini ifodalovchi frazemalar: boshi osmonga yetmoq, boshi gʻovlab ketmoq, xushi boshidan uchmoq kabi; insonning aqliy, faoliyatini ifodalovchi frazemalar: boshini qotirmoq, boshidan kechirmoq kabi; insonning aqlini, hayolini, xotirasini ifodalovchi frazemalar: boshi ishlaydi, boshidan oʻtgan, boshi bilan kabi;” jazolash” tushunchasini ifodalovchi frazemalar: boshida danak (yongʻoq) chaqmoq, boshida tegirmon toshi aylantirmoq, boshiga kulfat solmoq kabi; kasallik tushunchasini ifodalovchi frazemalar: boshi yostiqqa tegmoq, boshi

yorilay deyapti kabi; “o`lmoq, yemirilmoq” ma`nolarini ifodalovchi frazemalar: boshini yemoq, bosh olmoq, boshiga suv qo`ymoq kabilar.

Muallif ko`zining paxtasi chiqdi, ko`zi yorimoq, ko`zini moshdek ochomoq singari frazemalarni o`zbek tili frazeologik fondining o`ziga xos frazemalari deb hisoblaydi, chunki, bu frazemalarning boshqa tillarda muqobillari yo`q.

Somatik frazemalardagi system munosabatlar, ya`ni variantdoshlik yuzi chidamadi-beti chidamadi;og`zi katta-katta og`iz/ polisemiya /qo`luchida-ikki ma`noli; qo`lga olmoq -4ma`noli; bo`yniga olmoq 3 ma`noli; bosh ko`tarmoq 6 ma`noli/ sinonimiya ko`z yummoq-qulog`I ostida qolmoq; miyasiga sig`dira olmaslik-kallaga sig`dira olmaslik; qo`li gul- qo`li oltin/, omonimiya/ og`zini ochmoq-og`zi ochildi/, antonimiya/qo`li kalta-qo`li uzun; qo`lga kiritmoq-qo`ldan chiqarmoq//qo`ldan chiqarib yubormoq kabi hodisalar o`rganilgan.

60-80-yillarda o`zbek frazeologiyasini yana bir boshqa yo`nalishda o`rganish sohasida

Ma`lumki, tilshunoslikda frazeologiya uzoq yillar leksikologiya tarkibida o`rganib kelingani uchun so`zning uslubiy va boshqa jihatdan tavsifi mexanik ravishda frazeologizm, frazeologik birlik (FB) yoki iboralarga ham tadbiq qilinadi. FB ni so`zga tenglashtirgandan ko`ra uning so`zga funksional, uslubiy va leksik-semantik jihatdan mos kelishi haqida gapirish, ana shu holatni ko`proq tahlil qilish, til shinavandalari ongiga yetkazish maqsadga muvofiqdir.

Ma`lumki, frazeologizmlar tilda tayyor holda mavjud bo`lganligi, turg`unligi sababli, bir qarashda ularning struktual tartibi o`zgarmasdek tuyuladi. Ammo nutqda, ayniqsa, badiiy va publisistik nutqda, she`riy matnlarda frazeologizmlar ma`lum tashqi, ya`ni struktual va ichki, ya`ni semantic o`zgarishlarga uchraydi. Tilshunoslikda frazeologizmlarning struktual o`zgarishlari deformatsiya, yani shakl buzilishi sifatida qaralsa, ichki ma`no, semantic o`zgarishi modifikatsiya sifatida o`rganib kelinmoqda³.

³ Qo`chqortoyev I. badiiy nutq stilistikasi.-Toshkent,1975.-B47-64; Yo`ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari.- Samarqand.-B129-144

Yozuvchilar, shoirlar, tilshunos olimlar FB larni tilimizning nodir, bebaho boyligi, xalq donoligining xazinasini deb hisoblaydilar. Chunki iboralar nutqni, ayniqsa, badiiy nutqni jonlantiradi, uni obrazli, emotsional, bo'yoqdor qiladi, iboralar fikrni qisqa, ixcham shaklda ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi. N. M. Shanskiy, Ye. A. Bistrova va T. Aliqulovlar hamkorlikda yaratgan "Rus tilidagi 700 frazeologik ibora" lug'ati (M., 1981) da qayd qilinishicha, "agar tilni frazeologik iboralar bilan "buloq suvi" ga qiyoslash mumkin bo'lsa, iboralar qatnashmagan tilni distillyatsiya qilingan suvga tenglashtirish mumkin. Nutq jarayonida ibora qo'llanmasa, u "o'ta qoidali", hatto "sun'iy" bo'lib ko'rinadi [5-bet]". Ana shuni chuqur anglagan G'afur G'ulom o'z asarlarida iboralardan o'rinli, maqsadga muvofiq holda qo'llashga, shu bilan o'z asarlari tilini "buloq suvi" dek tiniq, ta'sirchan qilishga intilib kelmoqda. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, uning asarlarida mingdan ortiq ibora to'rt mingdan ortiq o'rinda qo'llangan. Birgina "Shum bola" qissasida yuzdan ortiq ibora qo'llangan bo'lib shulardan katta qismini somatic frazeologizmlar tashkil etadi. Bu iboralar adib asarida bir qancha uzual va okkazional uslubiy vazifalarni bajarishga bo'ysundirilgan.

Istedodli adibimiz G'afur G'ulom tildan mohirona foydalanishi uning umumtil frazeologizmlarni individual qo'llashida ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. U ba'zan frazeologizmlarni mazmun tomonidan o'zgartirib, tasvirlanayotgan hodisalarga moslab qo'llasa, ba'zan ularni uslubiy tomondan yangi, odatdan tashqari matnlarda qo'llashga intiladi.

Frazeologizm so'z singari shakl va mazmunning dialektik birligi sifatida mavjud bo'ladi. Frazeologizmning shakli uning tashqi tomoni, ko'rinishi bo'lib, ifoda plani, komponent tarkibi, struktural qurilishi yoki material asosi deb yuritiladi. Frazeologizmning mazmuni esa uning ichki tuzilishi yoki semantikasi. Masalan, "ko'zi chiqquday" frazemasi darg'azab, kuchli hayajon ma'nolarini aks ettiradi. - Bu iboraning shakli-ifoda plani ikki bosh bo'lakli yoyiq sodda gapdir: -Iya!-dedi boy **ko'zlarining shox soqqasi chiqquday**, -Adol opang hali erga chiqmagan-ku! (151).

Frazeologizmlarning yuqoridagi kabi odatdagi, umumtil qo'llanishida uning shakli ham, mazmuni ham o'zgarmaydi. Lekin talantli adiblarimiz singari G'ur G'ulom ham frazeologizmlarni o'z asarlarida ijodiy jihatdan qo'llab, ularni "yoshartirish"ga, uslubiy samaradorligini, ta'sirchanlik darajasini oshirishga harakat qilib kelingan. Okkazional o'zgarishga uchragan iboralarni o'rganuvchi olimlar ularni ko'pincha birin-ketin yoritadilar-u, bunday o'zgarishlarni bir tizim shaklga keltirishga kam e'tibor beradilar. Masalan, marhum akademik Iristoy Qo'chqortoyev yozuvchi Abdulla Qahhor asarlarida mazmun tomonidan o'zgartirib qo'llangan iboralarni quyidagi to'rt guruhga bo'lib izohlagan edi: 1) ma'nosi o'zgartirib qo'llangan iboralar; 2) yangi uslubga ko'chirilgan iboralar; 3) atalishi o'zgartirilib qo'llangan iboralar; 4) komponentlarining dastlabki ma'nolari tiklab qo'llangan yoki ibora yordamida so'z o'yini hosil qilish usullari⁴

Umuman olganda, oddiy, umumtil frazeologizmlari badiiy va publisistik uslubda turli xil o'zgarishlarga, transformatsiyaga uchraydi. "Frazeologimalar transformatsiyasi deyilganda ibora ma'nosida, tuzilishida, component tarkibida yuz beradigan o'zgarishlar tizimi tushuniladi. An'anaviy frazeologizm bilan o'zgarishga uchragan FB larni bir-biridan farqlash lozim, chunki an'anaviy frazeologizm til hodisasi bo'lsa, uzgarishga uchragan FB lar nutq hodisasidir, ularning ayrimlari asta-sekinlik bilan kontekstual hodisadan usul, til hodisasiga o'tishi mumkin. Bu esa tilning, jumladan, adabiy til frazeologik tizimining taraqqiyot jarayonini o'zida ifoda etadi. Biz ham ana shu fikrdan kelib chiqib, o'z bitiruv malakaviy ishimizda G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida somatik frazeologizm qo'llashning individual-muallif usullarini imkoniyatimiz darajasida o'rganishga harakat qildik.

G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llangan somatik frazeologizm struktur-semantik o'zgartirish usullari. Ibora strukturasidagi, komponent tarkibidagi o'zgarish ma'lum darajada uning semantikasiga ham ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ibora o'z ma'nosini o'zgartiradi yoki qo'shimcha ma'no ottenkalariga ega bo'ladi. Masalan, adabiy tilda "qo'l quvushtirmoq" iborasi bo'lib, "biror ishni

⁴ Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi.-Toshkent,1975.-B. 74-87.

bajarishga tayyor holda turmoq” ma’nosini o’zida aks ettiradi. Adib xuddi shu iborani ma’nosini yanada kuchaytirish maqsadida “ikki qo’lini qovushtirib” iborasini hosil qilgan. ”Mullanamo kishi tiz cho’kib, **ikki qo’lini qovushtirib** Sultonning gaplariga miyig’ida odob bilan tabassum qilib o’tirar edi (115).

Asarlarda iborani oddiy qo’llanishdagi so’z bilan kengaytirish (murakkablashtirish) o’sha ibora tarkibiga biror semantik yoki grammatik o’zgarish kiritadi, shu asnoda umumtilga xos iboraning ekspressiv bo’yoqdorligi ortadi. G’afur G’ulomning “Shum bola” qissasida qo’llangan somatik frazeologizmlarning ham murakkablashtirilib qo’llanganligining guvohi bo’lamiz: a) ibora tarkibiga uning boror komponentiga tegishli, o’sha komponentni aniqlab, izohlab keluvchi so’z yoki o’xshatish birikma kiritish. Odatda bunday kengaytirish fe’l frazeologizmlarda ko’proq yuz beradi, bunday iboralarning komponentlaridan biri izohlanadi va kengaytiriladi. Tilshunoslikda frazeologizmlarning struktural o’zgarishlari deformatsiya, ya’ni shakl buzilishi sifatida qaralsa, ichki ma’no, semantik o’zgarishi modifikatsiya sifatida o’rganib kelinmoqda⁵. Bu o’rinda **“Ko’zi g’ayin olxuridek qinidan chiqib ketgan”** iborasiga frazeologizmlarning struktural o’zgarishlari deformatsiya, ya’ni shakl buzilishi sifatida qarash lozim bo’ladi.

Ko’zim nosha’riy, harom luqmalarga **tusha boshlaydi** (136). Ushbu o’rinda ham “ko’zi tushmoq” iborasi” ko’rib qolmoq” ma’nosida kelgan.

-Iya!-dedi boy **ko’zlarining shox soqqasi chiqquday**, -Adol opang hali erga chiqmagan-ku! (151).

“Ko’zlarining shox soqqasi chiqquday” iborasining bu o’rinda “o’ta darajada darg’azab, kuchli hayajon” ma’nolarini aks ettirib kelmoqda.

Qo’y bozoriga kirib, shoxlari mullabachchalarning sallasiday buralab-buralab ketgan do’ng peshonalik, katta bir qo’chqorga xaridor bo’lib turganimda **ko’zim** tanish bir basharaga **uchradi** (152).

Umuman ibora tarkibini aniqlovchi yordamida kengaytirish iboraning semantic tomonini kuchaytiradi., ekspressiv ohagdorligini oshiradi.

Shunday qilib, bizning tahlillarimiz shuni ko’rsatadiki, o’zbek tili “ko’z” komponentli iboralarga boy tillardan biridir. Taniqli yozuvchimiz G’afur

⁵ 2.Qo’chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi.-Toshkent,1975.-B.47-64; Yo’ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari.- Samarqand, 1999.B.129-144.

Gʻulom ham ana shu iboralarni oʻzining “Shum bola” qissasida ununli va oʻrinli qoʻllagan.

Umuman olganda, oddiy, umumtil frazeologizmlari badiiy va publisistik uslubda turli xil oʻzgarishlarga, transformatsiyaga uchraydi. “Frazeologizmlar taransformatsiyasi deyilganda ibora maʼnosida, tuzilishida, komponent tarkibida yuz beradigan oʻzgarishlar tizimi tushuniladi. Anʼanaviy frazeologizm bilan oʻzgarishga uchragan FB larni bir-biridan farqlash lozim, chunki anʼanaviy frazeologizm til hodisasi boʻlsa, uzgarishga uchragan FB lar nutq hodisasidir, ularning ayrimlari asta-sekinlik bilan kontekstual hodisadan uzual, til hodisasiga oʻtishi mumkin. Bu esa tilning, jumladan, adabiy til frazeologik tizimining taraqqiyot jarayonini oʻzida ifoda etadi. Biz ham ana shu fikrdan kelib chiqib, oʻz bitiruv malakaviy ishimizda taniqli yozuvchimiz Gʻafur Gʻulomning “Shun bola” qissasida ibora qoʻllashning individual-muallif usullarini “koʻz” komponentli frazemalar misolida imkoniyatlarimiz darajasida tahlil qildik.

Asarda “qoʻl” komponentli frazemalar ham faol qoʻllanishda boʻlganligini koʻrishimiz mumkin.

Maʼlumki, FB lar tarkibida kamida ikkita soʻz qatnashadi. “Qoʻl” komponentli FB lar boshqa FB lar singari tizilishiga koʻra yo birikmaga yo gapga teng boʻladi. Masalan, qoʻl (i) ni siltadi iborasi ichki sintaktik qurilichi jixatidan gapga taeng (ega bilan kesim munosabatini aks ettiradi), ayni shu iboraning qoʻlni siltamoq varianti esa birikmaga teng (vositasiz toʻldiruvchi bilan toʻldirilmish munosabatini aks ettiradi).Demak, ibora tarkibidagi bir soʻz-komponent grammatik jihatdan oʻzgarsa, u keyingi ikkinhi komponentda ham shunga yaqin oʻzgarishni talab qiladi. Natijada esa birikma gapga, gap esa birikma holatiga oʻtadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida boʻla oladigan iboralar anchagina: qoʻl (i) baland boʻldi- qoʻl (i)ni baland qilmoq; qoʻl (i)ni koʻtardi- qol(i)ni koʻtardi; qol(i) ni yuvib qoʻltiqqa urdi- qoʻlini yuvib, qoʻltiqqa urmoq kabi.

Bu kabi o'zgarishlar Fb larning shakliga ta'sir etgani bilan, ularning mazminida hech qanday o'zgarish yuz bermaydi. Shunday iboralar borki, ularda bu shakliy o'zgarishni uchratmaymiz. Ularning bir qismi doimo birikma xolida, ayrimlari esa gapga teng ko'rinishda bo'ladi. Masalan, qo'l bermoq, qo'ldan chiqmoq, qo'l tegsa kabi iboralar doim birikmaga teng qurilish shaklida, qo'ldan kelmoq, qo'li bormadi, qo'li qisqa, qo'li uzun, qo'li egri, qo'li kalta, qo'li ochiq kabi iboralar esadoim gapga teng qurilish shaklida qo'llanadi.

Ma'lumki, tilimizda eng ko'p va sarmahsul qo'llanadigan iboralar – fe'l Fblardir. Agar FB birikma holida bo'lsa, u shubhasiz tuslanadi, agar uni gap xolida uchratsak, u tuslanmaydi. Masalan, “qo'l ko'tarmoq” birikmaga teng Fbni tuslaymiz: qo'l ko'tardim, qo'l ko'tarning, qo'l ko'tardi. “Qo'l tegdi” iborasi gapga teng FB bo'lgani uchun uni bunday paradigmatic shakllarda tuslay olmaymiz.

Fe'l Fb larning leksik tarkibida ayrim hollarda fe'l so'z komponentdan tashqari, boshqa turkum so'zi ham qatnashadi. Bunday so'z komponent ko'pincha ot bilan ifodalanadi, ana shu ot so'z- komponentning tarkibida ko'pincha egalikaffiksi qatnashadi: qo'l (i) yuqori keldi, qo'l (i)ni ko'tarmoq kabi . Ana shu egalik affiksi vositasida fe'l FB uch shaxsdan biriga nisbat beriladi: qo'lim yuqori keldi, qo'ling yuqori keldi kabi.

Ko'rinib turibdiki, kishi bilan bog'liq Fblarda tuslanish, nisbatlanish hodisasi kuzatiladi, narsa bilan bog'liq FB lar tarkibida esa tuslovchi va nisbatlovchining faqat III shaxs shakligina qatnasha oladi.

“Qo'l” komponentli Fblarningsintaktik qurshovi deganda, ularning nutqda har xil vazifadagi so'zlar bilan birga bog'lanib kelishi nazarda tutiladi. Agar FB gapga teng qurilishda bo'lsa, uning tarkibida ega mavjudligi sababli u nutq jarayonida o'zidan boshqa egani ololmaydi: qo'l(i) tegdi, qo'li qisqa kabi.

Ba'zi “qo'l” komponentli fe'l FB lar kishini angkatadigan vositasiz to'ldiruvchini ham, narsani anglatadigan vositasiz to'ldiruvchini ham boshqara oladi: qo'ldan bermoq k i m n i yoki n i m a n i: qo'lga olmoq kim –kimni yoki nimani kabi. Ayrimlar esa vositasli to'ldiruvchimi boshqaradi; qo'l siltamoq

kim yoki nimaga, qo`l ko`tarmoq kim kimga, qo`l kelmoq nima kimga, qo`li baland kimning nimada, qo`l(i) tegmadi kimning nima qilishga kabi.

Tilimizda varantdoshlik xodisasi ham mavjud bo`lib, buni “qo`l” komponentli FB misolida ham uchratishimiz mumkin. Variantlanish tufayli bir ibora ikkinchiasiga ayalnamaydi, balki uning paradigmatik shakli o`zgaradi xolos. Iboraning lug`aviy ma`nosi esa aynan saqlanadi. Masalan, qo`ldan chiqmoq-qo`ldan chiqarilmoq; qo`li kalta bo`ldi-qo`li kalatalik qildi; qo`li kalta-qo`li qisqa; qo`l siltamoq-qo`lni siltamoq-qo`lini siltamoq.

Bu kabi iboralarni sevimli adibimiz G`afur G`ulom ijodida mahorat bilan qo`llanganligining guvohi bo`ldik.

XULOSA

O`zbek tilining o`ziga xos jilosi, uning serqirraligi, badiiy obrazlar yarata olish qudratini to`laroq anglash uchun mumtoz va hozirgi zamon adiblarimiz badiiy asarlari tilini o`rganish zamon talabidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “Ma`naviyat va ma`rifat, madaniyat va axloq haqidagi asarlarni ko`plab chop etish, ayniqsa, madaniy meros bilan birga yangilanayotgan bugungi turmush tarzini va yangicha tus olayotgan jamiyatimiz mazmun-mohiyatini teranroq yoritish, kengroq o`rganish muhimdir” (Karimov I.A. Istiqlol va ma`naviyat. Toshkent. “O`zbekiston”, 1994, 59-bet).

Shunday ekan, so`z san`atkorining badiiy til mahoratini o`rganish, xalq tilidagi ifoda vositalarining boyligini ko`rsatish imkonini beradi. Badiiy mahorat tushunchasi til va badiiy uslub mezoni hamdir. Chunki yozuvchining so`z tanlash san`ati uning tasviriy vositalardan foydalanish, so`z qo`llash mahorati badiiy asar tilini o`rganishning asosini tashkil qiladi.

Tadqiqotchilar haqqoniy qayd etganlaridek, frazemalar badiiy asarlarda va publisistik uslubda , matbuot sahifalarida oddiy qo`llanishdan tashqari yozuvchi yoki shoirlarning badiiy mahorati, til ustida ishlashi natijasida yangi-yangi ma`no noziklariga ega bo`ladilar, FB larning komponent tarkibi, strukturasi turli xil o`zgarishlarga uchraydi, frazemalarning shu asosda shakllangan yangi ohori

to`kilmagan variantlari, ko`rinishlari yozuvchilar, shoirlar badiiy mahoratining mahsuli bo`lib, badiiy asar tilining ta`sirchanligini, g`oyaviy-badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Gafur G`ulom qalami sehrining mevasi bo`lgan ichida moy qaynamoq, baqqolning maymunidek, hayitda qandolat bozoriga tushgan qishloqi, ajuza bo`lib yurmaslik, qo`ltig`iga qo`l ura, bir hovuch bit to`kilmoq kabi yangi frazemalar fikrimizga yaqqol dalil bo`la oladi.

Mazkur ishni yozishda G`afur G`ulom ijodiga bag`ishlangan ilmiy tadqiqotlardan, xususan, H. Shukurov, B. Choriyevlarning ishlaridan, A. Isaevning “O`zbek tilida somatik frazeologizmlar” nomli nomzodlik dissertatsiyasi, Sh.Usmonova “O`zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar” mavzusida nomzodlik ishi, B. Yo`ldoshevning “Frazeologik uslubiyat asoslari” (1999), T.Sodiqovanning “El ustozim” (1997), S. Mirvaliyevning O`zbek adiblari (2007), S. Mirzayevning “XX asr o`zbek adabiyoti” (2006) nomli asarlaridan ijodiy foydalanildi. O`ylaymizki, mazkur bitiruv malakaviy ishi Gafur G`ulomning “Shum bola” qissasida qo`llangan somatik frazeologizmlarni o`rganish ishini samaradorligini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Badiiy asar tili badiiyatini o`rginish o`zbek tilshunosligida ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Chunki, yozuvchi asarlari matni lingvostatistik, grammatik, leksik tahlili borasida hali bajarilishi lozim bo`lgan ishlar ko`lami keng, uning o`zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo`shgan hissasi va ijodiy uslubining o`ziga xos belgilarini aniqlash masalalari o`z dolzarbligini yo`qotgani yo`q.

Til –bu material va vosita-“badiiy adabiyotning birinchi elementi” (M.Gorkiy) sifatifa milliy madaniyatning asosiy shakllaridan biridir. Shu bilan bir qatorda, badiiy adabiyot milliy adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta`sir ko`rsatadi. Badiiy adabiyot tilini o`rganish davr tili umumiy qonunlarini bilish uchun keng imkoniyat yaratadi.

So`nggi yillarda o`zbek yozuvchilarining tili va uslubi haqida, shuningdek, konkret bir badiiy asarning tiliga doir qator monografiyalar ilmiy maqolalar, nomzodlik dissertatsiyalari paydo bo`ldi.

Bu hol tilshunoslikda adabiy va badiiy til hamda uslub masalalariga katta e`tibor berilayotganligi, uning nazariy asoslari ishlab chiqilayotganligini ko`rsatadi.

Taniqli abibimiz G`afur G`ulomning chuqur insoniy, falsafiy mushohadalarga boy ijodining til xususiyatini atroflicha “Shum bola” qissasi misolida tahlil qilishga urindik.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, eng yaxshi badiiy asarlar butun insoniyatning, ayniqsa, yoshlarning sodiq do`sti, zero ular qalbini yuksak va olijanob tuyg`ular bilan to`ldirishda, yana ham muhimi, ularni ezgu ishlarga ilhomlantirish, o`quvchilarda Vatan, xalq oldidagi burch hissini yuksaltirishda yetakchi omildir. Iste`dodli abibimiz G`afur G`ulomning asarlari bu borada beqiyos ahamiyat kasb etadi. Adibning boy merosidan bahramand bo`lish yoshlarimizning komil inson bo`lib voyaga yetishida muhim rol o`ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma`naviyat yingilmas kuch. Toshkent, “Ma`naviyat”, 2008yil, 139-140-betlar

2. Tursunov U.,Muxtorov J.,Rahmatullayev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili.- Toshkent: O`qituvchi,1992.,B.101.
3. Qo`chqortoyev I. badiiy nutq stilistikasi.-Toshkent,1975.-B47-64;
Yo`ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari.-Samarqand.-B129-144
4. G`.G`ulom. Shum bola. Toshkent.1989
5. Sh. Raxmatullayev O`zbek tilining frazeologik lug`ati. -Toshkent, 1992.
6. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o`zbek tili. -Toshkent, 2006.

O`zbek filologiyasi fakulteti 4 “A” guruh talabasi Hamdamova Zulfizarning
“G`afur G`ulomning “Shum bola” qissasida qo`llangan somatik frazeologizmlar”
mavzusidagi referatiga ilmiy rahbar

XULOSASI

O'zbek tilining o'ziga xos jilosi, uning serqirraligi, badiiy obrazlar yarata olish qudratini to'laroq anglash uchun mumtoz va hozirgi zamon adiblarimiz badiiy asarlari tilini o'rganish zamon talabidir. Mana shu jihatdan 4 "G" guruh talabasi Hamdamova Zulfizarning tanlagan mavzusi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Talaba G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llangan somatik frazeologizmlarni aniqlab, tahlilga tortgan va shu bilan birgalikda o'zbek tilshunosligida so'zlar va iboralarni o'rganishga doir muammolar, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llangan somatik frazeologizmlar va ularning tilning lug'aviy tizimida tutgan o'rni va asarda qo'llangan "ko'z", "qo'l", "til" komponentli frazeologizmlarni mahorat bilan ochib berishga intilgan.

Ishning xulosa qismida mavzu yuzasidan talabaning barcha nazariy xulosalari umumlashtirilib yakunlangan.

Shu bilan birga ishda ba'zi juz'iy kamchiliklar ham uchraydi. Masalan, ishda imloviy va uslubiy xatoliklar ham yo'q emas.

Men, 4 "A" guruh talabasi Hamdamova Zulfizarning G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llangan somatik frazeologizmlar mavzusidagi referatini ijobiy baholayman

.

Ilmiy rahbar:

G. Ernazarova

O'zbek filologiyasi fakulteti 4 "A" guruh talabasi Hamdamova Zulfizarning G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida qo'llangan somatik frazeologizmlar" mavzusidagi referatiiga

TAQRIZ

O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bu tilning ichki va tashqi imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish imkonini yaratdi. O'zbek tili asrlar davomida necha minglab turkiy ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bo'lib, o'zbek

xalqi orasida o`zaro aloqa vositasi hamda uning matbuot va badiiy adabiyot tili bo`lib xizmat qilmoqda. Bu tilda Alisher Navoiy, Bobur, Abdulg`ozi Bahodirxon, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Cho`lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, G`afur G`ulom, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqa qator adiblarimiz o`zlarining tarixiy- badiiy asarlarini yaratib, uning qudratini namoyish qilganlar. Ana shunday asarlardan biri G`afur G`ulomning “Shum bola” qissasidir.

Talaba G`afur G`ulomning “Shum bola” qissasida qo`llangan somatic frazeologizmlarni aniqlab, tahlilga tortish barobarida o`zbek tilshunosligida so`zlar va iboralarni o`rganishga doir muammolar, G`afur G`ulomning “Shum bola ” qissasida qo`llangan somatik frazeologizmlar va ularning tilning lug`aviy tizimida tutgan o`rni va asarda qo`llangan “ko`z”, “qo`l”, ”til” komponentli frazeologizmlarni atroflicha yoritishga harakat qilgan.

Ishning xulosa qismida mavzu yuzasidan talabaning barcha nazariy xulosalari umumlashtirilib yakunlangan.

Men, 4 “A” guruh talabasi Hamdamova Zulfizarning G`afur G`ulomning “Shum bola” qissasida qo`llangan somatik frazeologizmlar mavzusidagi referatini ijobiy baholayman.

Taqrizchi:

f.f.d. N.Murodova